

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2020. I.16.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

**XAYDAROVA E'ZOZA SHUKURULLAYEVNA**

**QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING  
INNOVATSION SALOHIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH**

**08.00.13 – Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (Phd)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Xaydarova E'zoza Shukurullayevna**

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion salohiyatini  
boshqarish samaradorligini oshirish..... 3

**Хайдарова Эъзоза Шукуруллаевна**

Повышение эффективности управления инновационным  
потенциалом предприятий промышленности строительных  
материалов..... 31

**Khaydarova Ezoza Shukurullaeyevna**

Increasing the efficiency of innovation capacity management of building  
materials industry enterprises..... 59

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 63

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2020. I.16.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

**XAYDAROVA E'ZOZA SHUKURULLAYEVNA**

**QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING  
INNOVATSION SALOHIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH**

**08.00.13 – Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Iqt2051 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Nurimbetov Ravshan Ibragimovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Saidov Mash'al Samadovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent <b>Buriyev Xakim Toshimovich</b> iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
<b>Yetakchi tashkilot</b>	<b>Toshkent davlat texnika universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020. I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «30» 01 kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Kutubxonasida tanishish mumkin (1394 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-75; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «16» 01 kuni tarqatildi.  
(2024-yil «16» 01 dagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi).



**G.K. Abdurahmanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**O.Djuraboyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
Ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha  
falsafa doktori, dotsent

**R.X. Karlibayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining raqamlashuvi va integratsiyalashuvining kuchayib borishi korxonalarining innovatsion salohiyatidan foydalanish va uni samarali boshqarish darajasiga ehtiyojni oshirmoqda. Bugungi kunda innovatsion salohiyatni boshqarish nafaqat mamlakat, balki korxonalar darajasida ham samarali amalga oshirilishining talab etilmoqda. Muntazam o'zgarib boruvchi tashqi muhitda zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati korxonalarining optimal rivojlanishi va faoliyatini ta'minlaydigan innovatsion salohiyatga erishishi mazkur yo'nalishdagi asosiy muammolardan biriga aylanib bormoqda. Innovatsion salohiyatdan foydalanish darajasini oshirish qurilish materiallari sanoati korxonalariga nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki qurilish jarayonini tashkil etish usullarini ham takomillashtirish imkonini beradi. "Qurilish sanoati sohasi hozirda infratuzilma obyektlari va sanoat loyihalaridan turar-joy hamda tijorat ko'chmas mulklariga o'tish davrini boshidan kechirmoqda. Bu esa, yuqori sur'atdagi urbanizatsiyalashuv bilan bog'liq. Jumladan, dunyo miqyosida 2021-2025 yillar oralig'ida turar-joy va tijorat ko'chmas mulklari qurilishiga global xarajatlar taxminan 17 trillion dollarga o'sishi kutilmoqda"<sup>1</sup>. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion salohiyatini munosib baholash va samarali boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratish taqozo etilmoqda.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion salohiyati darajasini o'rganish va uni baholashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion salohiyati darajasini shakllantirish, uni miqdoriy baholash, bu boradagi turli-tuman nazariy va uslubiy yondashuvlarni tizimlashtirish, tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirishning yaxlit tizimini ishlab chiqish, qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tashkil etish va mazkur korxonalarining iqtisodiy faoliyati natijasida innovatsion salohiyatni boshqarishni tadqiq etish, innovatsion salohiyatini baholash va boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, qurilish materiallari sanoati korxonalarining raqobat muhitini yanada yaxshilash mazkur ilmiy tadqiqotning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda zamonaviy qurilish materiallari sanoati korxonalarini tashkil etish va boshqarishda iqtisodiy muvaffaqiyatning asosiy omili sifatida yuqori innovatsion salohiyatdan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zining innovatsion salohiyatini samarali boshqaradigan va bozorga turli yangiliklarni muvaffaqiyatli olib kiruvchi korxonalar yuqori raqobat ustunliklariga ega bo'ladi. Shunga ko'ra, O'zbekistondagi qurilish materiallari sanoati korxonalarini iqtisodiy faoliyatini boshqarish masalalariga yetarlicha e'tibor qaratish hamda xo'jalik

---

<sup>1</sup> <https://promo.severstal.com/digest/construction/tpost/8m15v4idue-obzor-mirovoi-stroitelnoi-otrasli-progno#>:

yurituvchi subyektlarning innovatsion salohiyatini boshqarish amaliyotini takomillashtirishga oid vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarning samarali amalga oshirilishi: “innovatsion salohiyat” tushunchasining mazmunini nazariy-uslubiy jihatdan takomillashtirish, qurilish materiallari sanoati korxonalarining xom ashyoni qazib olishdan uni qayta ishlash, tayyor qurilish va pardozbop materiallar ishlab chiqarishgacha qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi qurilish materiallari korxonalarini klasterlarini tashkil etish, innovatsion salohiyatni boshqarishda qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish, moliyaviy, boshqaruv, marketing, mehnat va ehtimoliy salohiyatlarini integral baholash tizimini ishlab chiqish, qurilish materiallari sanoati korxonalaridagi iqtisodiy jarayonlarning asosiy tendensiyalari hamda innovatsion salohiyatni boshqarishning samarali vositalariga asoslangan uzoq muddatli prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2018-yil 21-sentabrdagi PF-5544-son “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-son “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 7-maydagi PQ-3698-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 23-maydagi PQ-4335-son “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda ushbu sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion salohiyati muammolarining turli yo‘nalishlari, jumladan, uni takomillashtirish jihatlari bilan bog‘liq jarayonlar xorijiy ilmiy maktab vakillari: Y.Shumpeter, G.Mensh, J.Forrester, I.Ansoff, E.Dixtl, X.Xermgen, F.Kotler, D.Liti, K.Allen, D.Bell, P.Draker, B.Lundval, N.Mazur, N.Rozenberg, R.Nelson kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan<sup>2</sup>.

---

<sup>2</sup> Allen K. Продвижение новых технологий на рынок. – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2009. – 455 с.; Bell, D.G. Knowledge markets and communities: two approaches for supporting product development teams. Invited talk at the Fordham Graduate School of Business CEUG Consortium. / D.G. Bell; 2011. –New York, NY.; Lundvall, B.A. National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning / B.A. Lundvall. London:

Mazkur yo‘nalishda MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan: S.D.Ilenkov, V.Ivanov, R.Fatxuddinov, A.Porshneva, K.Puznya, A.Rumyansev, A.I.Plotnikov, K.Dryus, Ye.G.Yegorov, S.R.Agarkov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida innovatsion salohiyatni baholash hamda uni boshqarish masalalari tadqiq etilgan.

O‘zbekiston Respublikasida qurilish kompleksining innovatsion rivojlanishi va uning moddiy-texnik bazasi iqtisodiy samaradorligini oshirish muammolarining ayrim jihatlarini Sh.N.Zaynutdinov, M.K.Ziyayev, I.X.Davletov, A.N.Djabriyev, R.I.Nurimbetov, B.D.Kalmetov, V.A.Kazimov, R.I.Gimush, S.M.Niyazov, A.Suyunov, E.X.Mahmudov, Sh.K.Qurbaniyazova, M.A.Ikramov, M.A.Mahkamova, N.M.Maxmudov, A.F.Rasulev, G.J.Allayevalar kabi iqtisodchi-olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘rib o‘tilgan<sup>3</sup>.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlar o‘rganilayotgan muammoning tizimli yondashuvini aks ettirsa-da, biroq mamlakatda ushbu sohadagi tadqiqotlar muhim qimmatga ega ekaniga qaramasdan, hozirgi kunda qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion salohiyatini boshqarish usullarini joriy etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan. Shu bilan birga, qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion salohiyatini oshirish tizimli yondashuvga asoslangan mustaqil tadqiqot obyekti sifatida to‘liq o‘rganilmaganligi mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

---

Pinter Publishers, 2002; Мазур Н.З. Инновационная экономика: инновационные системы. Интеллектуальная собственность / Н.З. Мазур. – Самара: Издательство SNS RAN», 2001; Иванов В.В. Национальные инновационные системы: теория и практика. Шумпетер Й.А. История экономического анализа. / Й.А. Шумпетер; Пер. с angl. под ред. В.С.Автономова. SPb.: Экон. шк.: С.-Петерб. гос. ун-т экономики и финансов; М.: Высш. шк. экономики, 2001. - 1664 с.; Фатхутдинов, Р.Ф. Инновационный менеджмент / М., 2016.; Radosevic S. Region Innovation Systems in Central and Eastern Europe: Determinants, Organizers and Alignments. –Brighton: University of Sussex, 2012.

<sup>3</sup>Зайнутдинов Ш. Н., Нуримбетов Р. И. Ресурсная база и потенциал производства Узбекистана: использование и эффективность (региональный аспект) // Бюллетень науки и практики // Электрон.журн. 2017. №10 (23). S. 207-212. Режим доступа: <http://www.bulletennauki.com/zaynutdinov> (data obrasheniya 15.10.2017); Зияев М.К., Давлетов И.Х. Совершенствование управления инвестиционно-строительным процессом в условиях углубления рыночных отношений // Инвестиционный потенциал банков: вызовы, возможности и перспективы: Матер. межд. науч.-прак. конф. БФА РУз, 26-27 сентября 2008 г. – Ташкент: “Молия”, 2008. - С.46-49; Калметов Б.Д., Казимов В.А., Гимуш Р.И. Углубление экономических реформ в строительном комплексе Узбекистана. Монография Ташкент, 2006. 186 с.; Ниязов С.М. Экономическое реформирование производственно-технической базы строительства.-Т.: «Fan va texnologiya», 2010.-176s.; Суюнов А. Модернизация экономики капитального строительства на основе совершенствования инвестиционных процессов.- Т.: «Fan va texnologiya», 2010.-164 s.; Махмудов Э. Х. Промышленность Узбекистана: экономика, размещения, приоритеты развития (вопросы теории и практики) - Ташкент: Иктисодиёт, 2013. 131 с.; Курбаниязов Ш.К. Производство строительных материалов на современном этапе экономического развития Узбекистана. //Biznes-ekspert, 2017, №11(119). (08.00.00; № 3). Икромов М.А. , Алимов Е.А. Формирование спроса , как фактор инновационного развития Узбекистан. Материалы международной конференции. «Экономический рост России: проблемы и стратегические перспективы», s . 38-44, 2019; Махкамova М.А. Теория инновационного менеджмента. Монография. –Ташкент: «Fan va texnologiya», 2019; Maxmudov N.M., Xamidov S.O., Avazov N.R., Investitsiyalardan samarali foydalanish asosida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish. Monografiya. Toshkent, 2020-y; Расулев А.Ф., Алимов Р. Стимулирование инновационной активности в экономике // Общество и экономика. –М.: Nurimbetov R.I., Kalmuratov B. Innovatsion boshqarish strategiyasining ahamiyati // Jamiyat va boshqaruv. –Т.: 2010, № 2–В. 73-75. Davletov I.X. Uyjoylar loyiha yechimlarini kompleks baholashning ilmiy-uslubiy asoslari: iqt. fanlari doktori disser.(DSc) avtoreferati. – Tashkent, 2023. – 83 b

**Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent arxitektura-qurilish institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №A-2-47 "Quyida Amudaryo mintaqasida qurilish sohasini boshqarishni rivojlantirish strategiyasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish" 2017-yil amaliy loyihasi doirasida bajarildi.

**Tadqiqotning maqsadi** Respublika qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsiyalar va innovatsion salohiyatni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari hamda uni boshqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish;

innovatsion salohiyatni baholash uslubiyotini takomillashtirish asosida qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati korxonalarini boshqarishni tizimlashtirish;

O'zbekistonda qurilish tarmog'i rivojlanishining iqtisodiy holatini tahliliy o'rganish;

qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion salohiyatini gorizontol hamda vertikal tahlil asosida baholash;

innovatsion salohiyatni oshirish asosida qurilish materiallari sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish;

qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion salohiyatini ko'p omilli bog'lanishlar asosida modellashtirish orqali sinergetik samaradorlikni oshirish yo'llarini aniqlash;

qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion salohiyatini shakllantirish ssenariylarini ishlab chiqish.

innovatsion salohiyat elementlaridan samarali foydalanish asosida qurilish sanoati korxonalarining 2027- yilgacha prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyektini** etib O'zbekiston Respublikasi qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion faoliyati belgilangan.

**Tadqiqotning predmetini** qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion salohiyatini boshqarish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida terminologik tahlil, omilli tahlil, SWOT-tahlil, korrelyatsion-regression tahlil, ekspert baholash, so'rovnoma, iqtisodiy-matematik kabi usullardan hamda tizimli, ehtimoliy-adaptiv yondashuvlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra, qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion salohiyati tahlil obyektining retrospektiv va perspektiv analitik ko'rsatkichlarini



baholash mezonlari tarkibi moliyaviy, ishlab chiqarish, mehnat, marketing, boshqaruv va ehtimoliy salohiyat turlarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

qurilish materiallari sanoati korxonalarining xom ashyoni qazib olishdan uni qayta ishlash, tayyor qurilish va pardozbop materiallar ishlab chiqarishgacha qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi qurilish materiallari korxonalar klasterlarini tashkil etish orqali faoliyat samaradorligini oshirish taklifi asoslangan;

innovatsion salohiyatni boshqarishda qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish, moliyaviy, boshqaruv, marketing, mehnat va ehtimoliy salohiyatlarini integral baholash bo'yicha: "yuqori" ( $1,2 \leq INs$ ), "barqaror" ( $1,0 \leq INs < 1,2$ ), "o'rtacha xavfli" ( $0,7 \leq INs < 1,0$ ) va "yuqori xavfli" ( $0 \leq INs < 0,7$ ) koeffitsiyent chegaralari doirasida belgilash asoslangan;

qurilish materiallari sanoati korxonalaridagi iqtisodiy jarayonlarning asosiy tendentsiyalari hamda innovatsion salohiyatni boshqarishning samarali vositalariga ko'ra tuzilgan omilli model asosida 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion salohiyati ko'rsatkichlari aniqlangan va ularni integrallashtirish zarurligi ko'rsatilgan;

qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion salohiyatini boshqarishda iqtisodiy manfaatlarni baholashning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan;

ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda innovatsion salohiyatni boshqarish bo'yicha ishlab chiqilgan uslublar asosida moliyaviy salohiyat, ishlab chiqarish, mehnat, boshqaruv, marketing va ehtimoliy salohiyatlarining o'zaro bog'liqligi va ularning natijalarini baholash mumkinligi asoslangan;

qurilish materiallari sanoati korxonalarini iqtisodiy faoliyati natijalari asosida innovatsion salohiyatini baholash uslubiyoti ishlab chiqilgan;

turli mulkchilik shakllariga ega qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda innovatsion salohiyatning roli va uni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari aniqlangan;

qurilish materiallari sanoati korxonalarini samaradorligini oshirish va innovatsion salohiyatini faollashtirishning ssenariylari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyada qo'llanilgan yondashuvlar hamda usullarning ilmiy va uslubiy jihatdan asoslanganligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, o'tkazilgan empirik tadqiqotlarning o'rnatilgan uslubiy asosga egaligi, xulosa va takliflarning qurilish sohasiga vakolatli idoralar va tashkilotlardan o'tganligi hamda tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qurilish materiallari sanoati korxonalarini tizimini iqtisodiy jihatdan baholash va uning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, qurilish tarmog'i iqtisodiy samaradorligini oshirishga oid olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati vazirlik va idoralar tomonidan qurilish materiallari sanoati korxonalarini tizimi rivojlanishi va raqobatbardoshligiga baho berishda, undagi muammolarni aniqlashda va boshqarishda, qurilish tarmog‘i tizimining rivojlanish istiqbollari belgilashda foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion salohiyatini samarali boshqarishni ta‘minlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion salohiyati tahlil obyektining retrospektiv va perspektiv analitik ko‘rsatkichlarini baholash mezonlari tarkibini moliyaviy, ishlab chiqarish, mehnat, marketing, boshqaruv va ehtimoliy salohiyat turlarini kiritish orqali takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ma‘lumotlardan oliy ta‘lim muassasalari talabalari uchun mo‘ljallangan “Uy-joy kommunal xo‘jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 25-noyabrdagi 388-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, barcha mavjud salohiyat turlari umumiy qobiliyatlari yig‘indisi sifatidagi “innovatsion salohiyat” tushunchasi mazmunining nazariy-uslubiy asoslari takomillashtirilib, oliy ta‘lim tizimi talabalari tomonidan ushbu soha bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

qurilish materiallari sanoati korxonalarining xomashyoni qazib olishdan uni qayta ishlash, tayyor qurilish va pardozeb materiallar ishlab chiqarishgacha qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi qurilish materiallari korxonalarini klasterlarini tashkil etish orqali faoliyat samaradorligini oshirish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi PQ-139-son qaroriga 6-ilova bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasining 2023-yil 12-oktyabrdagi 05/15-2072-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida, qurilish sanoati korxonalarini innovatsion salohiyatini samarali boshqarish orqali qo‘shilgan qiymat zanjirida sof foydaning 10-15 foizga oshishiga erishilgan;

innovatsion salohiyatni boshqarishda qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish, moliyaviy, boshqaruv, marketing, mehnat va ehtimoliy salohiyatlarini integral baholash bo‘yicha: «yuqori» ( $1,2 \leq INs$ ), «barqaror» ( $1,0 \leq INs < 1,2$ ), «o‘rtacha xavfli» ( $0,7 \leq INs < 1,0$ ) va «yuqori xavfli» ( $0 \leq INs < 0,7$ ) koeffitsiyent chegaralari doirasida belgilash taklifidan O‘zbekiston Qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasi tomonidan “Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari” dasturida foydalanilgan (O‘zbekiston Qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasining 2023-yil 12-oktyabrdagi 05/15-2072-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida, qurilish materiallari sanoati korxonalarini pog‘onalashtirilgan saralash tizimini joriy etishga va ushbu chora-tadbirlarni qo‘llash orqali qurilish materiallari sanoati korxonalarini foydasini 12-16

foizgacha oshirish imkoni yaratilgan;

qurilish materiallari sanoati korxonalaridagi iqtisodiy jarayonlarning asosiy tendensiyalari hamda innovatsion salohiyatni boshqarishning samarali vositalariga ko‘ra tuzilgan omilli model asosida 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarini amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasining 2023-yil 12-oktyabrda 05/15-2072-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida qurilish materiallari sanoati korxonalarini samarali boshqarish ssenariylari ishlab chiqilgan va ular faoliyatini optimallashtirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, OAK tomonidan e‘tirof etilgan ilmiy jurnallarda 4 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, shuningdek, respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida 2 ta va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda 6 ta ma‘ruza tezislari chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqot hajmi 137 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning ilmiy ishlar rejalari bilan aloqadorligi aniqlangan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, ilmiy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion salohiyatini boshqarishning nazariy va uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida **“korxonani innovatsion salohiyati”** atamasining ko‘p yillar davomida transformatsiya bo‘lishi ko‘rib chiqilgan. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining moliyaviy, ishlab chiqarish, boshqaruv, mehnat, marketing va ehtimoliy salohiyat turlari-korxonalar innovatsion salohiyatini tashkil etuvchi salohiyat turlari sifatida tizimlashtirilgan.

Bugungi kunda qurilish tarmog‘i mamlakatdagi yirik tarmoqlardan biri hisoblanadi va shu bilan birga, O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining qariyb 9 foizini tashkil qiladi. Mamlakatdagi keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlarning olib borilishi natijasida qurilish korxonalarining faoliyat yuritish ko‘lami ham ortib bormoqda. Shu munosabat bilan, qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion

salohiyatini oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda, chunki iqtisodiyotning barcha tarmoqlari singari qurilish tarmog‘ining rivojlanishi ham innovatsion salohiyatning oshishiga bog‘liq. Aynan shu sababli innovatsion salohiyati past, bozor talablariga javob bermaydigan korxonalar o‘z faoliyatini to‘xtatadi va shu bilan birga, innovatsion salohiyati yuqori bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar faoliyat yuritishda va rivojlanishda davom etadilar. Shunday qilib, innovatsion salohiyat munosabatlarning rivojlanishi natijasida korxonalar va tashkilotlar innovatsion salohiyati oshadi. Innovatsion salohiyat munosabatlari nafaqat qurilish, qolaversa, barcha korxonalar va tashkilotlar taraqqiyotning asosi hisoblanadi.

## 1 -jadval

### “Innovatsion salohiyat” atamasiga mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta’riflar<sup>4</sup>

Mualliflar	Ta’rifi
SH.N.Zaynutdinov	Innovatsion salohiyat mamlakatning texnika va texnologiyasi yangilanishi, unda ilmiy-texnika rivojlanishi darajasini, diversifikatsiya siyosatining kuchayishini anglatadi.
R.I.Nurimbetov	“Innovatsion salohiyat” tushunchasi keng ma’noni anglatib, mamlakatda fan, iqtisodiyot, texnologiya, tibbiyot, ta’lim va boshqa sohalarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar va yangiliklarni ifodalaydi.
I.Y.Umarov, S.S. Saidkarimova, SH.B.Obloqulova	Sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni belgilovchi ko‘rsatkichlarda, eng avvalo, uning innovatsion rivojlanish indikatorlari asosiy hisoblanadi. Innovatsion rivojlanish indikatorlari iqtisodiy, ilmiy hamda faol innovatsion faoliyat sohalariga bo‘lingan holda o‘rganiladi
A.J. Qaxxorov	Korxonaning innovatsion salohiyati – bu korxonaning innovatsion g‘oyalardan yangiliklar yaratishi va o‘sha yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini ifodalovchi xususiyatlar majmui hisoblanadi
B.S.Ruziyev	Innovatsion salohiyat - barcha bozor munosabatlari ishtirokchilaridan yangi g‘oya va loyihalarni izlab topish, ularni ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish, turli ilmiy-texnika masalalarini o‘z vaqtida yechish bo‘yicha resurslar
G.B Shanazarova	Korxonalar yoki tashkilotning yoxud umuman olganda qaysi tarmoq, sohada faoliyat ko‘rsatishidan, mulkchilik shaklidan, tashkiliy- huquqiy maqomi, o‘lchamlaridan qat’i nazar istalgan bir xo‘jalik yurituvchi subyektning yangi ishlanmalarni ishlab chiqish, kashfiyotlar yoki ixtirolarni, foydali modellarni yaratish, ularni joriy faoliyatida samarali qo‘llash bo‘yicha mavjud barcha intellektual, moliyaviy, kadrlar, axborot, moddiy-texnik va boshqa resurslari hamda imkoniyatlari yig‘indisidir.
Muallif ta’rifi	Qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion salohiyati tahlil obyektining retrospektiv va perspektiv analitik ko‘rsatkichlarini baholash mezonlari tizimi sifatida manfaatdorlikning ortib borishi orqali moliyaviy, ishlab chiqarish, mehnat, marketing, boshqaruv va ehtimoliy salohiyat turlarining umumiy qobiliyatlari yig‘indisidir.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini raqamlashtirishda innovatsion salohiyat raqobatlashmagan mehnat bozoriga ega. Korxonalarning barqaror rivojlanishi uchun bozor talablarining o‘zgarishini oldindan ko‘ra bilish, muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etish qobiliyatiga, shuningdek, bozorda yangi raqobat ustunliklarini o‘zlashtira olish va rivojlantirish lozim. Shu o‘rinda aytish lozimki, innovatsion

<sup>4</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

salohiyat innovatsion faoliyatni ta'minlash uchun mavjud resurslardan emas, balki bu faoliyat mexanizmlarini to'g'ri tashkil etish maqsadga muvofiqdir. (1-ladval).

Innovatsion salohiyatni murakkab tizim sifatida tasniflash uning asosiy tizimli xususiyatlarini aks ettirishi lozim. Innovatsion salohiyatning har bir turi va kichik turidagi funksional, tizimli va dinamik yondashuvlar asosida boshqaruvning ma'lum bir darajasiga, sohaga, subyektlarga, faoliyat ko'lamiga tegishli bo'lgan har xil turdagi innovatsion salohiyatni birlashtirgan sinflar va kichik sinflarni ajratish mumkin.

Shunday qilib, tizim sifatida innovatsion salohiyat atrof-muhit, tarmoq va sohalar bilan o'zaro aloqada bo'lib, u orqali ma'lum funksiyalarni bajarishda namoyon bo'ladi va innovatsion salohiyatni funksional sinfga kiritish imkonini beradi. Shu bilan birgalikda, hozirgi kunda qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida ham innovatsion salohiyatni boshqarishda muhim vazifalarni amalga oshirish talab qilinadi. Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatiga boshqaruv tizimlarining kiritilishi innovatsion salohiyatning resurs komponenti bo'lib, bu holda boshqaruv tizimi natijasi sifatida korxonaning texnologik raqobatbardoshligining shakllanishi hisoblanadi. Muallif fikricha, qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion salohiyati tahlil obyektining retrospektiv va perspektiv analitik ko'rsatkichlarini baholash mezonlari tizimi sifatida manfaatdorlikning ortib borishi orqali moliyaviy, ishlab chiqarish, mehnat, marketing, boshqaruv va ehtimoliy salohiyat turlarining umumiy qobiliyatlari yig'indisini qarash lizim.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda qurilish materiallari sanoatida «innovatsiya» va «innovatsion salohiyat» tushunchalarining mohiyatini yoritishda, uning asosiy xususiyatlariga e'tibor qaratish talab etiladi:


- qurilish materiallari sanoatida innovatsiya tushunchasi yangi qurilish mahsulotlari yoki xizmatlar, ularni ishlab chiqarish uslublari, tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-tadqiqot va boshqa doiralardagi yangiliklarni joriy qilish, sarf-xarajatlarni tejash imkoniyatini yaratishni o'zida ifodalaydi;

- qurilish materiallari sanoatida turli ko'rinishdagi innovatsiyalar uchun umumiy (bazisli, amaliyotga tatbiq etiluvchi, mahsulotni diversifikatsiyalash, yangi turdagi qurilish materiallari mahsulotlari va xizmatlar) bo'lgan qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchilarga daromad keltirish va iste'molchilarga yangi mahsulotdan va yangi texnologiyalardan muvaffaqiyatli foydalanish bosqichini o'zida namoyon etadi.

Ushbu xususiyatlar qurilish materiallari sanoatida innovatsiya va innovatsion salohiyatning bevosita xossalari bo'lib, ularning yangiligi, ularni yangi qurilish materiallarini ishlab chiqarishda qo'llay olinishi, iqtisodiy samara berishi va uning, albatta, iste'molchilar talabiga javob bera olishidir.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion salohiyati tarkibiy qismlari sifatida: moliyaviy, ishlab chiqarish, marketing, mehnat, innovatsion, boshqaruv va ehtimoliy salohiyat turlari biz tomondan shakllantirilgan (1-rasm). Qurilish materiallari sanoati korxonasi innovatsion salohiyatini boshqarish zarurati mavjud salohiyat turlaridan samarali foydalanishda sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatishni

talab qiladi. Qurilish materiallari sanoati korxonalari innovatsion salohiyatini boshqarish - barcha mavjud salohiyat turlarini, jumladan, ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat, marketing, boshqaruv va innovatsion salohiyat turlarini boshqaruv tamoyillari, funksiyalari va shakllari asosida tashkil etish demakdir.



**1-rasm. Qurilish materiallari sanoati korxonasi innovatsion salohiyati tarkibi<sup>5</sup>**

Qurilish materiallari sanoati korxonasi innovatsion salohiyati tarkibiy qismlarini biz tomondan taklif etilgan manfaatdorlik indeksi asosida baholash optimal mahsulot ishlab chiqarish miqdorini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, korxonalarining zararsizlik nuqtalarini aniqlash va prognoz qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

<sup>5</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ta'riflarning barchasi "innovatsion salohiyat" tushunchasini aniqlash bo'yicha klassik qarashlarni inobatga olgan holda, "Qurilish materiallari sanoati korxonasi innovatsion salohiyati" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishni taklif etamiz. Bizningcha, korxonaning innovatsion salohiyati – bu barcha mavjud salohiyat turlari, jumladan, ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat, marketing, boshqaruv va ehtimoliy salohiyatlarning umumiy qobiliyatlari yig'indisidir.

Bu esa, qurilish materiallari sanoati korxonasi tashqi muhitga bog'liq holda o'zaro ta'sir jarayonida tayyor qurilish mahsulotlariga (xizmatlariga) bo'lgan bozor ehtiyojlarini aniqlash va qondirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish asosida korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash qobiliyatidir.

Shunday qilib, ushbu bobda qurilish materiallari sanoati korxonalari innovatsion salohiyatini oshirish omillari va uning asosiy ko'rsatkichlari taqdim etilgan. U oltita asosiy qismning, ya'ni salohiyat turlarini (boshqaruv salohiyati, ishlab chiqarishi salohiyati, moliyaviy salohiyat, ehtimoliy salohiyat, mehnat salohiyati, marketing salohiyati) baholash asosida qurilish materiallari sanoati korxonalari innovatsion salohiyatini oshirishni nazarda tutadi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasi qurilish materiallari sanoati korxonalari innovatsion salohiyati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘i rivojlanishi tahlil qilingan va shu bilan birga, qurilish materiallari sanoati korxonalarining barcha salohiyat turlari bo'yicha innovatsion salohiyatining gorizontaal hamda vertikal tahlili amalga oshirilgan.

Bugungi kunda qurilish tarmog‘ining iqtisodiy rivojlanishi tez sur'atlarda amalga oshayotganligi ushbu sohaning mamlakat iqtisodiyotida, jumladan, yalpi ichki mahsulotdagi o'rnini ortib borayotganligi bilan izohlanadi. Biz tomondan mazkur tarmoqdagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda gorizontaal hamda vertikal tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotlar davomida yuqorida keltirilgan yondashuvga asosan, iqtisodiy ko'rsatkichlarni iqtisodiy manfaatdorlik koeffitsiyenti bo'yicha tahlil o'tkazish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Quyida keltirilgan 2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, o'rganilayotgan 2013-2022-yillarda qurilish tarmog‘ining o'sishi jadal sur'atlar bilan amalga oshgan va o'rtacha manfaatdorlik koeffitsiyenti 1,25 ga teng bo'lganligini ko'rish mumkin va ushbu ko'rsatkich o'rganilayotgan iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori o'sish sur'atiga ega ekanligini bildiradi.

## 2-jadval

O'zbekiston Respublikasining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari<sup>6</sup>

Yillar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	O'rtacha o'zgarish koeffitsiyenti
<b>YAIM (mlrd. so'm)</b>	153311,3	186829,5	221350,9	255421,9	317476,4	424728,7	529391,4	602193	734587,7	896617,9	1,20
<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</b>	15219,3	20060,4	25423,1	29413,9	34698	51129,3	71156,5	88130,3	107492,7	130790,9	1,25
<b>Qurilish tarmog'ida ish bilan bandlar soni (ming kishi)</b>	1144	1183,3	1222,2	1263,6	1290	1205,5	1324,6	1305,6	1350,8	1314,3	1,02
<b>Sanoat ishlab chiqarish hajmida qurilish materiallari ishlab chiqarishning ulushi (%)</b>	-	-	-	-	6,1	6,3	5,6	4,9	5,1	5,6	0,99
<b>Qurilish oynasi (ming kv.m)</b>	7139,3	7189,2	7232,4	7283,0	7348,0	9295,8	16853,9	17983,7	19032,9	20702,3	1,03
<b>Sement (ming tonna)</b>	7991,3	8071,2	8313,4	8645,9	9132,2	9080,4	10763,8	11239,7	11998,4	11078,2	0,94
<b>Qurilish g'ishtlari (million dona)</b>	1268,9	1281,6	1307,3	1333,4	1379,0	1704,2	1267,2	12376,3	13563,7	13567,3	1,79
<b>Keramika plitalari (ming tonna)</b>	268,5	276,6	279,4	262,6	245,6	1894,0	9596,1	10023,8	10987,6	11996,4	1,99
<b>Quruq qurilish aralashmalari (ming tonna)</b>	106,6	132,2	152,0	183,9	245,1	762,4	846,7	1000,8	1154,7	1218,6	1,25

O'z navbatida bu shuni anglatadiki, ushbu davrda mamlakatda YAIM manfaatdorlik o'rtacha koeffitsiyenti ham 1,2 ga teng bo'lganligini kuzatish

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



mumkin. Qolaversa, o'rganilayotgan davrda sanoat ishlab chiqarish hajmida qurilish materiallari ishlab chiqarishning o'rtacha manfaatdorlik koeffitsiyenti 0,99 ga teng bo'lganligini ko'rish mumkin. Bu ham bugungi kunda qurilish tarmog'i salohiyatining tez sur'atlar bilan ortib borishi va barcha boshqa yirik tarmoqlardan tez rivojlanishi va manfaatdorlik ko'rsatkichiga ega hisoblanmoqda. Keltirilgan davrda qurilish tarmog'ida ish bilan band bo'lganlar sonining ortib borishi manfaatdorlik o'rtacha koeffitsiyenti 1,02 ga teng bo'lganligini, aholining umumiy daromadlari miqdori manfaatdorligi o'rtacha koeffitsiyenti 1,2 ga teng bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, mamlakatda qurilish materiallari ishlab chiqarish dinamikasi bo'yicha asosiy qurilish materiallaridan qurilish oynasi ishlab chiqarish o'rtacha manfaatdorlik koeffitsiyenti 1,03 ga, sement ishlab chiqarish o'rtacha manfaatdorlik koeffitsiyenti 0,94 ga, qurilish g'ishtlari ishlab chiqarish o'rtacha manfaatdorlik koeffitsiyenti 1,79 ga, keramika plitalari ishlab chiqarish o'rtacha manfaatdorlik koeffitsiyenti 1,99 ga va quruq qurilish aralashmalari ishlab chiqarish o'rtacha manfaatdorlik koeffitsiyenti 1,25 ga teng bo'lganligi ko'rish mumkin.

Navbatdagi keltirilgan 3-jadvalda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi foiz ko'rinishida va ularning o'zgarishi koeffitsiyentlarda keltirilgan bo'lib, bunda asosiy e'tibor asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning qurilish-montaj ishlarini bajarish uchun, asbob-uskunalar va jihozlar uchun va boshqa barcha kapital ishlari hamda xarajatlari uchun yo'naltirilgan investitsiyalar foiz hamda koeffitsiyent ko'rinishida keltirilgan.

### 3-jadval

#### O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi<sup>7</sup>

Yillar	2013		2014		2015		2017		2018		2019		2020		2021		2022	
	foiz	koef.	foiz	koef.	foiz	koef.	foiz	koef.	foiz	koef.	foiz	koef.	foiz	koef.	foiz	koef.	foiz	koef.
<b>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami:</b>	100	1,23	100	1,19	100	1,14	100	1,41	100	1,72	100	1,58	100	1,07	100	1,21	100	1,25
<b>Shu jumladan:</b>																		
<b>Qurilish montaj ishlari</b>	49,7	1,02	51,5	1,04	51,0	0,99	52,0	1,02	53,4	1,03	44,6	0,84	40,2	0,90	43,4	1,08	48,7	1,04
<b>Asbob-uskuna va jihozlar</b>	35,2	1,05	32,3	0,92	31,6	0,98	34,4	1,09	32,9	0,96	43,8	1,33	52,1	1,19	49,5	0,95	33,4	0,92
<b>Boshqa kapital ishlari va xarajatlar</b>	15,1	0,84	16,2	1,07	17,4	1,07	13,6	0,78	13,7	1,01	11,6	0,85	7,7	0,66	7,1	0,92	17,9	1,07

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.  
[www.stat.uz](http://www.stat.uz)

E'tiborli jihati shundaki, mamlakatimizda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, ya'ni qurilish-montaj ishlari uchun kiritilgan investitsiyalar 2013-2022-yillar davomida doimiy o'sish ko'rsatkichini namoyon etmagan, aksincha, eng yuqori ko'rsatkich 2018-yilda bo'lib, keyingi davrda birmuncha kamayganligini, ya'ni 2013-yilda 49,7 foiz, 2018-yilda 53,4 foiz va 2022-yilda 48,7 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin. Mos ravishda, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar manfaatdorligining o'zgarish koeffitsiyentlari ham turli davrlarda turlicha bo'lib 2013-yilda 1,02 ga, 2018-yilda 1,03 koeffitsiyentga va 2022-yilda 1,04 koeffitsiyentga teng bo'lgan.

Shu bilan birga, asbob-uskuna-jihozlar uchun kiritilgan investitsiyalar miqdori esa, ortganligini, ya'ni 2013-yilda 35,2 foiz, 2018-yilda 32,9 foiz va mos ravishda, 2022-yilda 33,4 foizni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, manfaatdorlikning o'zgarish koeffitsiyentlari ham turli 2013-yilda 1,05 koeffitsiyentga, 2018-yilda 0,96 va 2022-yilda bu ko'rsatkich 0,92 koeffitsiyentga teng bo'lganligini ko'rish mumkin.

Navbatdagi keltirilgan 4-jadval ma'lumotlariga asosan, qurilish materiallari sanoati korxonalari iqtisodiy tahlilini korxonalar manfaatdorligi jihatidan amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan bo'linish mezonlariga asosan, barcha ko'rsatkichlar bo'yicha korxonaning manfaatdorlik koeffitsiyentlari 1 dan kichik bo'lganda rivojlanish darajasi past darajada, 1 ga teng bo'lganda, meyoriy rivojlanish jarajasiga ega ekanligi va 1 dan yuqori bo'lganda, yuqori rivojlanish ko'rsatkichiga ega ekanligini aytish mumkin bo'ladi<sup>8</sup>.

Quyida keltirilgan jadvalda turlicha aylanma mablag'larga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari, jumladan "Kelajak magistrali" MCHJ va "Bunyodkor" MCHJ korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Ko'rsatkichlarning umumiy o'rtacha manfaatdorlik koeffitsiyentlari 1,0 dan yuqori ekanligi ushbu korxonalarining yuqori rivojlanish darajasiga ega ekanligidan dalolat beradi. Albatta, ushbu ko'rsatkichlarning yuqori ekanligi yaxshi holat, biroq bunday tahlil usuli orqali ayrim ko'rsatkichlarning manfaatdorlik koeffitsiyenti ko'rsatkichi bir xil ekanligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, bunday bir xillik ushbu ma'lumotlarning to'g'riligi va haqiqatga mos kelishiga shubha uyg'otadi. Mazkur jadvalning gorizontal tahlili shuni ko'rsatadiki, turli mulkchilik shakllariga ega qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion salohiyatini tashkil etuvchi boshqaruv resurslarining umumiy o'rtacha integral ko'rsatkichlari turli xil korxonalarda turlicha bo'lgan. Jumladan, "Kelajak magistrali" MCHJ qurilish korxonasining boshqaruv resurslarini belgilovchi o'rtacha integral ko'rsatkich -1,36 koeffitsiyentga va mos ravishda, "Bunyodkor" MCHJ qurilish korxonasida mazkur ko'rsatkich -1,18 koeffitsiyentga teng bo'lgan.

Korxonaning innovatsion salohiyati koeffitsiyentini aniqlash bo'yicha biz tomonimizdan keltirilgan formula asosida yuqorida tahlil qilingan ikkita qurilish

---

<sup>8</sup> Ismailov A. Qurilish korxonalari iqtisodiy salohiyatini boshqarishda iqtisodiy manfaatlarning shakllanishi. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2022. 10(3), 71–82. <https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/it/article/view/10/10>

## 4-jadval

**Qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiy faoliyati ko'rsatkichlari bo'yicha  
ma'lumot<sup>9</sup>**

Yillar	2018		2019		2020		2021		2022		Manfaatdorlikning o'rtacha o'zgarish koeffitsiyentlari	
Ko'rsatkichlar	“Kela jak magist rali” MCHJ	“Bunyod kor” MCHJ	“Kela jak magist rali” MCHJ	“Bun yodkor” MCHJ	“Kela jak magist rali” MCHJ	«Bunyod kor» MCHJ	«Kelajak magis trali» MCHJ	«Bunyod kor» MCHJ	«Kelajak magist rali» MCHJ	«Bunyod kor» MCHJ	«Kelajak magist rali» MCHJ	«Bunyod kor» MCHJ
<b>Qurilish ishlari hajmi</b>	1,16	1,18	1,59	1,40	1,24	1,29	1,41	0,56	1,32	1,32	1,34	1,15
<b>Olingan sof foyda</b>	1,23	1,47	1,59	0,75	1,83	1,29	0,75	0,75	1,32	0,91	1,34	1,03
<b>Mehnat resurslari soni,</b>	1,15	1,47	1,26	1,20	1,97	1,20	1,21	1,01	1,22	1,19	1,36	1,21
<b>Shundan:</b>												
<b>Doimiy ishchi va xodimlar soni</b>	1,15	1,47	1,15	1,20	1,97	1,09	1,21	1,01	1,09	1,19	1,31	1,19
<b>Mavsumiy ishchilar soni</b>	-	-	1,36	-	-	1,29	-	-	1,31	-	1,34	1,29
<b>Ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar hajmida innovatsion maxsulotlar ulushi</b>	1,07	1,04	1,15	1,17	2,56	1,09	1,21	0,96	1,09	1,19	1,42	1,09
<b>Korxonada o'rtacha ish haqi miqdori</b>	1,40	1,14	1,57	1,11	1,13	1,00	1,13	1,26	1,18	1,21	1,28	1,14
<b>Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati</b>	1,16	1,84	1,47	1,13	2,04	1,29	1,13	1,50	1,31	1,14	1,42	1,38
<b>Asosiy vositalarning qoldiq qiymati</b>	0,93	1,98	1,47	1,04	2,70	1,29	1,05	0,98	1,31	1,01	1,49	1,26
<b>Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati</b>	1,07	1,89	1,44	1,16	2,42	1,17	1,18	1,11	1,22	1,14	1,47	1,29
<b>Ishdan bo'shaganlar soni</b>	0,84	-	-	1,19	-	-	1,19	-	-	1,07	1,02	1,13
<b>Innovatsion salohiyati koeffitsiyenti</b>	1,1	1,5	1,4	1,1	2,0	1,2	1,1	1,0	1,2	1,10	1,36	1,18

<sup>9</sup> Qurilish korxonalari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

korxonasining innovatsion salohiyati bo'yicha integral ko'rsatkichlarini aniqlab olamiz. Demak, "Kelajak magistrali" MCHJ qurilish korxonasining integral innovatsion salohiyati koeffitsiyenti

$$IN_{qmk1}=(1,4*1,4*1,4*1,4*1,4*0,82)^{1/6}=1,35$$

1,35 ga teng bo'lganligini va "Bunyodkor" MCHJ qurilish korxonasi innovatsion salohiyatining integral koeffitsiyenti 1,16 ga teng bo'lganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.


$$IN_{qmk2}=(1,4*1,3*1,2*1,2*1,2*0,71)^{1/6}=1,16$$

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, qurilish korxonasi innovatsion salohiyatining koeffitsiyenti asosida uning faoliyati ko'lamini belgilovchi va unga ta'sir etuvchi mezon ko'rsatkichi belgilanishi zarur. Jumladan, ushbu integral ko'rsatkich asosida qurilish korxonalarining nafaqat resurslar ko'rsatkichi, balki uning qurilish obyektlarini qurish ishlarini olib borishda ham ushbu ko'rsatkichlar hisobga olinishi zarur.

Dissertatsiyaning **"Qurilish materiallari sanoati korxonalari innovatsion salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish"** deb nomlangan uchinchi bobida iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish doirasida qurilish materiallari sanoati korxonalari innovatsion salohiyatini oshirish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Muallif fikricha, har bir hududda yirik qurilish materiallari sanoati korxonalari doirasida qurilish materiallarini ishlab chiqarishda qurilish obyektlarini loyihalashtirish va tayyor ko'p qavatli uy-joylar qurishgacha bo'lgan qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi uy-joy qurilishi klasterlarini tashkil etish lozim bo'lib, shu bilan birga, ushbu klasterlar o'z ichiga ishchi va xodimlar xavfsizligini sug'urtalash tizimini ham qamrab olishi talab etildi. O'z navbatida, qo'shilgan qiymat zanjiri deganda, mahsulotni ishlab chiqarilgan paytdan boshlab yakuniy iste'molchigacha bo'lgan ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida, shu jumladan, ishlab chiqish va loyihalash jarayonlari, xomashyo yetkazib berishni ta'minlash, mahsulot marketingi va sotuvni tashkil etish, shuningdek, sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish nazarda tutilsa, bunda barcha jarayonlarda yaratilgan qiymat qo'shib ortib boraveradi. Mahsulot ushbu zanjirdagi barcha jarayonlardan ma'lum tartibda shakllanadi va har bir jarayon davomida qo'shimcha qiymat yaratiladi. Bundan tashqari, butun zanjir davomida, mahsulot barcha jarayonlar qiymatlari yig'indisidan kattaroq qiymatlarga ega bo'ladi.

Qiymat zanjiri tahlili har bir jarayon mahsulotga qancha qiymat qo'shishini baholaydi. Ushbu model kompaniya-jihozlar, pul oqimlari va boshqaruvning tasodifiy kombinatsiyasi emas degan fikrdan kelib chiqqan. Agar ushbu komponentlar bir tizimda tashkil etilsa va ulardan to'g'ri foydalanilsa, iste'molchilar to'lashga tayyor bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarish mumkin bo'ladi. Muayyan jarayonlarni bajarish va ularning boshqa jarayonlar bilan o'zaro ta'sirini boshqarish qobiliyati raqobatdosh ustunlikni yaratadi.

Bugungi kunda klasterlar tashkil etishning bir qancha variantlari mavjud bo‘lib unda korxonalar va tashkilotlarning ixtiyoriy ravishda birlashishi asosida tashkil etilishi, keyingi variant sifatida davlat organlarining maqsadli iqtisodiy siyosati yordamida amalga oshiriladi. Biz tomondan taklif etilgan “Kelajak magistrali” MCHJ qurilish materiallari sanoati korxonasi misolida qurilish klasterini tashkil etish qurilish materiallari sanoati korxonalarining o‘zaro hamkorligi asosida sinergetik iqtisodiy rivojlanishiga erishiladi (2-rasm).



**2-rasm. “Kelajak magistrali” MCHJ qurilish materiallari sanoati korxonasi misolida qurilish klasterini tashkil etish<sup>10</sup>.**

<sup>10</sup> Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

